

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI VA ULARNING AHAMIYATI

Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotation

ushbu maqola ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, pedagoglarga berilayotgan imkoniyatlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, o‘quvchilarning bilimlarni mukammal o‘zlashtirishida pedagogik texnologiyalarning o‘rnini haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, boshlang‘ich ta‘lim, pedagogik texnologiya, islohot, milliy o‘quv dasturi, metod, tizim, steam, interfaol.

Аннотация: эта статья написана о роли педагогических технологий в отличном овладе студентов, важность учителей, возможностей для преподавателей, современных технологий.

Ключевые слова: образование, воспитание, начальное образование, педагогические технологии, реформа, программа национальной подготовки, метод, система, пара, интерактивный.

Annotation

This article is written about the role of pedagogical technologies in the excellent mastery of students, the importance of teachers, opportunities for teachers, modern technology.

Keywords: Education, upbringing, primary education, pedagogical technology, reform, national training program, method, system, steam, interactive.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar keng jamoatchilik, xalqaro doira vakillari, siyosiy institutlar hamda ommaviy axborot vositalari xodimlarining diqqat-e’tiborini tortib kelmoqda. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta‘limtarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yoshlarning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma‘naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta‘minlash, yoshlarni qalbida Vatanga bo‘lgan sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlarga qo‘l urilmoqda. Bu ezgu islohotlarning barchasi xalqimiz kelajagini, manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning boshlang‘ich ta‘limiga qaratayotgan e’tiborlari shu islohotlarning bir bo‘g‘ini sifatida qalbimizni g‘ururga to‘ldiradi va yanada shijoatimizni orttiradi. Shular qatorida prezidentimizning: “Maktabda o‘qitish

metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”, – degan gaplari bizni yana ham ko‘proq yangiliklar yaratishimizga turtki bo‘ladi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim sohasiga qaratilayotgan e’tibor katta o‘rinni egallamoqda. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, bolaning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o‘stirishga mo‘ljallangan yangi darsliklar tayyorlash boshlanmoqda. Boshlang‘ich sinflarda DTS o‘rniga bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan “Milliy o‘quv dasturi” joriy etilishi buni isbotidir. O‘qituvchilar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan yana biriga boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o‘qituvchilar oyligiga ellik foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa 100 foiz ustama haq to‘lanadi degan fikrlarni keltirishimiz mumkin.

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning: “Har qarichi muqaddas bo‘lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g‘urur va iftixor, sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko‘raylik”, – degan fikrlariga javoban ta’lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko‘zlangan maqsadga erishishga qo‘limizdan kelganicha o‘z hissamizni qo‘shamiz.

Hammamizga ma’lumki, o‘qitish va tarbiya jarayoni bir-biri bilan uzviy bog‘liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya ta’lim jarayonining barcha majmuini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy intellektual insonni tarbiyalashda integrativ ta’limning barcha jihatlarini qamrab oladi va ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi. Integrativ ta’lim jarayonida o‘quvchilar, olamning yaxlitligini, koinot qonunlari, tabiat, jamiyat va insonlarning o‘zaro munosabatlari haqida har tomonlama bilimlarga ega bo‘lib kamol topadi. Ular tabiat go‘zalligini his qila olish, undan zavqlanish hamda e’zozlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, ta’lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e’zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug‘ullanishi va o‘zini-o‘zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba oz o‘quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta’lim jarayonining subyekti – talim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallahga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zları qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zları keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Pedagogik texnologiya- bu ta’lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yadigan texnik va shaxsiy

resurslarni va ularning bog‘liqligini hisobga olgan holda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli. O‘qituvchi bu jarayonda bolalarning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratib beradi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini ham bajaradi. Bugungi kunda ta’limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamонавиу texnologiyalar qo‘llanmoqda. Albatta, bu texnologiyalar o‘quvchilarni darsga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, fikrlashlarini kengaytiradi, shu bilan birga ongni rivojlanishiga yordam beruvchi metodlar qatoriga kiradi.

Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog‘liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o‘ziga xos jihatni tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o‘zining ko‘p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to‘liq namoyon bo‘lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog‘liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsnинг rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo‘ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishslash qobiliyatiga bog‘liq.

Pedagogik texnologiya mohiyat jihatdan boshqa texnologiyalar bir safda turadi, chunki ular kabi boshqalari ham o‘z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga ega, ma’lum material bilan ish koradi. Biroq pedagogik texnologiyalar inson ongi bilan bog‘liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish, biologik, hatto, axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o‘ziga xos tomonlari tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganliklaridir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzlusiz va an’anaviy o‘quv jarayoniga, uning samarasini, oshirishga ta’sir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Pedagogik texnologiya asosida o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug‘iladi va u o‘qituvchining yaqin ko‘makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to‘liq bajarishi mumkin. Natijada mantiqiy bog‘langan qisqa yo‘llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o‘quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o‘quvchi ularning natijasini ma’lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta’lim maqsadini to‘la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo‘yiladi. Dars mashg‘ulotlarida foydalilaniladigan pedagogik texnologiya quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- o‘quv-tarbiyaviy jarayonda o‘quv-texnik vositalari obyekt va usullaridan maqsadli foydalananishi;
- pedagogik jarayonda muloqot tizimini to‘g‘ri tashkil etish va pedagogik ma'lumotlarni taqdim etish;

- o‘quvchilarning bilim olish jarayonini boshqarish tizimi (o‘zlashtirish faoliyatidagi boshqaruv tizimi);
- belgilangan masalani yechish maqsadida pedagogik jarayon uslub va vositalarini shakllantirish;
- o‘qish va tarbiya jarayonini rejalashtirish;
- bir-biriga bog‘liq g‘oyalar tizimi, insonlar faoliyatini tashkil etish vositalari, ta’lim maqsadiga erishish resurslarni ichiga olgan yaxlit integrativ jarayon;
- pedagogik tizimni texnologik loyihalash. Yuqorida keltirib o‘tilgan talablarga javob beruvchi pedagogik texnologiyalar asosida o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berib borilsa, samaradorlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi.

Ta’lim jarayonini amalga oshirish va baholashni rejalashtirishda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

1.Konseptuallik: har bir pedagogik texnologiya o‘z tarkibida falsafiy, psixologik, didaktik, ijtimoiy pedagogik asosni qamrab olgan aniq ilmiy konsepsiyaga tayanishi lozim.

2.Tizimlilik: Pedagogik texnologiya hamma o‘zaro bog‘liq qismlardan iborat tizimning mantiqiy jarayoni belgilariga ega bo‘lishi va yaxlit bo‘lishi lozim Pedagogik texnologiya o‘quvchilarning rivojlanishi, ijodiy shug‘ullanishining metod, vositalarini, tafakkur rivojini o‘rganadi, qiyinchiliklarni engishga o‘rgatadi.

O‘quvchilarda o‘quv materialini tushunishiga, muammoli izlanishning yangi shakllarini egallahlariga imkon beradi. Bilish izlanish jarayonini boshqarishni ta’minlaydi. Jarayonning mazmun-mohiyati uning qismlarining uzviy bog‘liqligi, yaxlitligidan iborat.

3.Samaradorlik: zamonaviy pedagogik texnologiyalar raqobatli shartlar asosida mavjud bo‘lib, natijalar bo‘yicha samara berishi, optimal harakatli bo‘lishi va ta’limning ma'lum bir standartlarini kafolatlashi shart.

4.Qo‘llanuvchanlik: pedagogik texnologiya bir xil ta’lim muassasalarida boshqa subyektlar tomonidan ham qo‘llanilish imkoniyatini beradi.

Ayni davr o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Bizning hozirda ish faoliyatini olib borayotgan ayrim zamonaviy pedagoglarimiz ham o‘quvchilarining tarbiyali, tartib-intizomli, zehni o‘tkir, ilmli bo‘lib ulg‘ayishlari uchun darslarni a’lo darajada tashkil qilish maqsadida o‘zlarining faoliyatlaridan kelib chiqib yangi texnologiyalar ishlab chiqmoqdalar. STEAM tushunchasi butun dunyoda mashhur bo‘lib kelayotgan yangilik, albatta. Bu atama science technology engineering art math so‘zları birlashmasidan tarkib topgan bo‘lib, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san‘at va matematika sohalarini birlashtiruvchi yagona tizim hisoblanadi. Bu tizimdan ko‘zlangan maqsad shundan iboratki, o‘rganish paytida nafaqat miya, balki qo‘llar bilan ham ishlashadi. Shunda o‘rgangan bilimlarini tezda o‘zlashtirib ya’ni uqib oladilar. Bu tizimda faqatgina o‘qish bilan cheklanib qolmaydi, balki mustaqil fikrlashni ham o‘rganadilar. Shuning uchun o‘quvchilar o‘sib ulg‘ayishganida va shu bilan birga hayotiy muammolarga

duch kelishganida murakkab masalarni turli sohalarga tayanib, birgalikda ishslash orqali hal qilish mumkin ekanligini tushinadilar.

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida bog‘chadan so‘ng mактабning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng mas’uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehnini o‘sirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o‘yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o‘quv faoliyatiga o‘tganligi bilan xarakterlanadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o‘quvchilarni darsga jalb etish samarali bo‘ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to‘liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o‘quvchilaming bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e’tibor qaratishlari zarur.

Bolaning o‘quv faoliyatini rivojlantirishda turli o‘yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘yin orqali o‘z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o‘zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida qo‘llanadigan didaktik o‘yinlamining roli beqiyosdir. Didaktik o‘yinlar ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligini, o‘qish motivlarini rivojlantiradi. O‘qish motivlari ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o‘rin tutadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, biz pedagogika sohasidagi zamонавиу texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o‘zlashtirishimiz, shuningdek, ularni o‘z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo‘adi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta’riflar berilmoqda. Bizning e’tibor qaratishimiz zarur bo‘lgan holat shuki, pedagogik texnologiya ko‘zlagan maqsadga ayni biz kutayotgan natijada erishishni ifodalovchi jarayondir. Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda kafolatli natijani ko‘zlab, zamонавиу hamda samarali yo‘llarni tanlab, biri har bir narsa va hodisaga majmua sifatida yondoshish zarur. Aks holda faoliyat an’anaviylikni ifoda etib qoladi. O‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham an’anaviy usullardan farqli o‘laroq, yangicha pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirish va ta’lim jarayonida qo‘llash zamon talabidir. Dars jarayonida yangicha muhitni

shakllantirish, zamonaviy ko‘rgazmalardan, interfaol metodlardan foydalanib mazmunli olib borish zarur.

Shu nuqtai nazardan, har qanday pedagogik texnologiya tamoyillari markaziy o‘rinda turishi kerak. Shundagina faoliyat zamonga mos bo‘lib, jamiyat ijtimoiy buyurtmasini sharaf bilan bajarish mumkin.

Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.- T.: O‘zbekiston, 1992. B.78
2. Azizzxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: 2003.
3. Sayidahmedov N.Yangi pedagogik texnologiyalar. T. —Moliya nashriyoti, 2003. B.171
4. O‘. Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. —Fan, 2005. B.205.

Internet ma’lumotlari

1. www.wikipediya.uz
2. www.ziyo.net